



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2024 yil 19 avgust

№ 1926

O‘zbekiston Respublikasi ayrim sudlariga sudyalarni tayinlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunning 69-72-moddalari va “O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to‘g‘risida”gi Qonunning 7, 17-moddalariga muvofiq:

Gulyamova Ozoda Mirkamalovna – sudyalik lavozimida bo‘lishning navbatdagi o‘n yillik muddatiga Toshkent shahar sudining iqtisodiy ishlar bo‘yicha sudyasi lavozimiga tayinlansin;

Axmedova Dilfuza Muzaffarovna – sudyalik vakolati muddati davriga Navoiy viloyati fuqarolik ishlari bo‘yicha Karmana tumanlararo sudining sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Xorazm viloyati fuqarolik ishlari bo‘yicha Bog‘ot tumanlararo sudining sudyasi lavozimidan ozod qilinsin;

Rajabov Abduqodir Amonovich – sudyalik vakolati muddati davriga Toshkent viloyati fuqarolik ishlari bo‘yicha Ohangaron tumanlararo sudining sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo‘yicha Shayxontohur tumanlararo sudining sudyasi lavozimidan ozod qilinsin;

Kamolov Mexriddin Homidovich – sudyalik vakolati muddati davriga Buxoro viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Peshku tuman sudining sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Navoiy viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Navoiy shahar sudining sudyasi lavozimidan ozod qilinsin;

Inoyatova Nargiza Iskandarovna – sudyalik vakolati muddati davriga Toshkent shahar jinoyat ishlari bo‘yicha Bektemir tuman sudining sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Toshkent shahar Toshkent tumanlararo ma‘muriy sudining sudyasi lavozimidan ozod qilinsin.

Ushbu qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov